



JADIDLAR VA O‘ZBEK ADABIYOTINING SHAKLLANISHI VA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING BADIY IFODASI

Abdullayev Farrux

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi Samarqand*

kampusi o‘qituvchisi

+998993383070

abdullayevf1987@gmail.com

Po‘latova Diyora

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi Samarqand*

kampusi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining o‘zbek adabiyoti rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati vakillari sifatida xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatni targ‘ib etish va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, o‘zbek adabiyoti, milliy uyg‘onish, matbuot, ijtimoiy islohot, milliy ong, mustamlakachilik, jadid maktablari.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ влияния движения Джадидов, сформировавшегося в конце XIX и начале XX веков, на развитие узбекской литературы. Представители движения Джадидов выдвигают идеи освобождения народа от невежества, развития науки и просвещения, а также национального возрождения.



Ключевые слова: движение Джадидов, Просвещение, узбекская литература, национальное возрождение, пресса, социальные реформы, национальное самосознание, колониализм, школы Джадидов.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, adabiyot va ma'rifat tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jadidchilik harakati vakillari xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va zamonaviy ta'limni rivojlantirishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'ydilar.

Bu davr adabiyoti milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilish, ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qilish hamda xalqning ma'naviy ongini oshirishga xizmat qildi. Jadid adiblari badiiy asarlar, dramaturgiya, publitsistika va matbuot orqali jamiyatdagi muammolarni ochib berib, yangi tafakkur shakllanishiga turtki berdilar. Shu nuqtayi nazardan, jadid adabiyoti o'zbek milliy adabiyotining zamonaviy bosqichga o'tishida muhim tarixiy va estetik ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar harakati o'zbek milliy uyg'onishining asosi bo'lib, adabiyotni san'at uchun emas, jamiyatni qoloqlik va mustamlakachilikdan qutqarish quroliga aylantirdi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari ilk bor xalqning dunyoqarashini o'zgartirish, milliy o'zlikni anglatish va ularni ilm-fanga chorlash maqsadida badiiy ifodasini topdi¹.

Jadidchilik harakati davrida adabiyot faqat badiiy ijod vositasi bo'lib qolmay, balki jamiyatni uyg'otuvchi kuchga aylandi. Jadid adiblari asarlarida xalqning ijtimoiy muammolari, ta'limdagi orqada qolish, ayollarning jamiyatdagi o'rni hamda mustamlaka siyosatining salbiy oqibatlari keng yoritildi. Jadidlar asarlarining asosiy qahramoni – ilmga intilayotgan, ammo johillik va mustamlaka

¹ <https://journalss.org/index.php/mod/article>



siyosati tufayli qiynalayotgan millat vakili edi². Ular adabiyotni ma'rifat tarqatish va milliy ongni shakllantirish vositasi sifatida ko'rdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z ijodi orqali jadidchilik g'oyalari amaliy va badiiy shaklda ifodaladi. Uning "Padarkush" dramasi orqali jaholat va savodsizlikning fojiali oqibatlari ochib beriladi. Behbudiy matbuot va teatrni xalqni uyg'otishning eng samarali vositasi deb bildi. U yangi usul maktablari ochish, yoshlarni zamonaviy bilimlarga yo'naltirish tarafdori bo'lgan.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida roman janrini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning "O'tkan kunlar" asari orqali tarixiy voqelik, milliy mentalitet va insoniy munosabatlar chuqur badiiy tahlil qilinadi. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali muhabbat, sadoqat va ijtimoiy ziddiyatlar tasvirlangan. Qodiriy ijodi milliy adabiyotda realistik roman an'anasini mustahkamladi.

Abdulhamid Cho'lpon ijodi milliy uyg'onish, erkinlik va inson qadriyatini himoya qilish g'oyalari bilan ajralib turadi. Uning she'r va nasriy asarlarida mustamlaka zulmi, xalqning og'ir hayoti hamda ozodlikka intilish ruhiyati kuchli ifodalangan. Cho'lpon adabiyotning vazifasini xalqni uyg'otish va ma'naviy yuksaltirishda ko'rgan.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari jadid adabiyotining asosiy mazmunini tashkil etib, badiiy ijodda xalqni uyg'otish, ilmga chorlash va jaholatga qarshi kurash ruhida namoyon bo'ldi. Jadid ijodkorlari adabiyotni faqat estetik zavq manbai emas, balki ijtimoiy ongni o'zgartiruvchi qudratli vosita sifatida ko'rdilar. Shu sababli ularning asarlarida ta'lim, tarbiya, milliy uyg'onish va jamiyat islohoti kabi g'oyalar markaziy o'rinni egalladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida ma'rifat g'oyasi ayniqsa kuchli ifodalangan bo'lib, uning "Padarkush" dramasi orqali jaholatning fojeali oqibatlari badiiy

² <https://oyina.uz/uz/teahouse/1172>



shaklda ochib beriladi. Asarda ilmga befarqlik, tarbiyasizlik va ma'naviy qashshoqlik inson va jamiyatni halokatga olib borishi tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari realistik tasvirlar orqali ifodalanadi. "O'tkan kunlar" romanida jamiyatdagi eskilik va yangilik o'rtasidagi kurash, insoniy qadriyatlar va ma'naviy uyg'onish masalalari yoritiladi. Qodiriy qahramonlari orqali ilm, ong va adolatga intilish g'oyalari ilgari suriladi.

Abdulhamid Cho'lpon ijodida esa ma'rifatparvarlik g'oyalari erkinlik va milliy uyg'onish bilan uyg'unlashadi. Uning she'r va hikoyalarida xalqning uyg'onishi, zulmga qarshi kurashi va ma'naviy ozodlikka intilishi chuqur badiiy ifoda etilgan.

Jadid adabiyoti shaklan va mazmunan milliy bo'lgan adabiyot sifatida namoyon bo'ldi. Jadid adabiyotining xalq manfaatlarini himoya qilib chiqishining o'zigina uni xalqqa yaqinlashtira olmasdi, albatta. Bu adabiyot, eng avvalo, xalqonaligi bilan xalqning eng quyi tabaqalariga qadar kirib bora oldi va "Adabiyotning o'z nima?! U qanday bo'lmog'i?!" degan savolni qo'yi, "Uning vazifasi xalqni uyg'otmoq, millatni birlashtirmoq" – degan g'oyani ilgari surdi.³

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari obrazlar, syujetlar va badiiy konfliktlar orqali jonli va ta'sirchan shaklda ifodalangan bo'lib, bu jarayon o'zbek milliy adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek adabiyoti tarixi (2-jild). Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Begali Qosimov. Jadid adabiyoti va milliy uyg'onish. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Naim Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.1994.

³ https://tsuull.uz/sites/default/files/jadid_estetikasining_shakllanishi_anjuman_2023.pdf